



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчеҳра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасва Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридинович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозогистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**


**Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Boxodirov Ixtiyor</b> TURKISTON HARBIY OKRUGINING ILI O‘LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGINI O‘RNATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI.....	5
<b>2. Bo‘tayev Jonibek</b> XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TIBBIY XIZMAT HOLATI.....	10
<b>3. Djumamurotov G‘ulom</b> XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING OROL BO‘YIGA KO‘CHIB JOYLASHISHI.....	16
<b>4. Ergasheva Xusnida</b> NEFT SANOATINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH.....	27
<b>5. Кобзева О.П.</b> СКАНДИНАВСКИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛИ ШЕЛКОВОГО ПУТИ.....	34
<b>6. Rahmatov Muhridin</b> TATAR ZIYOLILARINING TURKISTON TA‘LIM TIZIMINI YO‘LGA QO‘YILISHIDAGI ISHTIROKI VA UNING NATIJALARI.....	40
<b>7. Ruzikulova Maftunaxon</b> MARKAZIY FARG‘ONA SUV XO‘JALIGINING MOLIYAVIY TA‘MINOTI VA UNDAGI MUAMMOLAR (1950-1991-yillar).....	46
<b>8. Саттаров Акрам</b> XIX АСР ЎРТАЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТ.....	52
<b>9. Tishabayev Alisher</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MALAKALI SPORTCHI MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2019-yillar).....	58
<b>10. Toliboyeva N.O.</b> O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY SOHANING YUKSALISHI.....	66
<b>11. Хайдаров Муродилла</b> ФРЕДЕРИК СТАРР. МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ.....	71
<b>12. Baxtiyor Yuldashev, Xusnida Ergasheva</b> SOVET DAVLATI HUKMRONLIGI YILLARIDA O‘LKADA NEFT SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR.....	81



ISSN: 2181-9599

www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF

LOOK TO THE PAST

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

**Jonibek Bo‘tayeв,**


Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsent.v.b. t.f.f.d (PhD)

E-mail:mr.butayev@mail.ru

**XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TIBBIY XIZMAT HOLATI**

**For citation:** Jonibek Bo‘tayeв. ESTABLISHMENT OF MODERN MEDICAL SERVICE IN SAMARKAND REGION AT THE END OF THE 19TH CENTURY AND THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 4, pp.10-15

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15380646>

**ANNOTATSIYA**

Mustamlaka davrida Samarqand viloyati ijtimoiy hayotida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Maqolada XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Samarqand viloyatida tibbiyot sohasida o‘tkazilgan islohotlar va unga oid statistik ma’lumotlar hamda mazkur soha bilan bog‘liq o‘sha davrdagi muammolar aniqlandi. Shuningdek, hudud Samarqand viloyati deb nomlangan tarixiy davrda ushbu sohada imperiya ma’uriyati tomonidan amalga oshirilgan o‘zgarish hamda yangiliklar ta’siri baholandi. Shu bilan birgalikda, davolanishga oid statistik ma’lumotlar hududlar kesimida taqqoslangan holda ko‘rib chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** viloyat, okrug, imperiya, uyezd, sanitariya, chechak, irrigatsiya, dezinfeksiya, tibbiy ekspertiza, shifokor, gubernator.

**Жонибек Бутаев**

Доцент и.о. кафедра социальных наук, д.ф.и.н. (PhD)

Университет естественных и социальных наук

E-mail:mr.butayev@mail.ru

**СОСТОЯНИЕ МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА****АННОТАЦИЯ**

В колониальный период в социальной жизни Самаркандской области были проведены ряд реформ. В статье выявлены реформы, проведенные Россией в области медицины в Самаркандской области в начале XX века, а также соответствующие статистические данные и проблемы, связанные с этой сферой в тот период. Кроме того, оценивается влияние изменений и нововведений, реализованных имперской администрацией в исторический период, когда регион назывался Самаркандской областью. Также статистические данные о лечении были рассмотрены и сравнены по различным территориям.

**Ключевые слова:** провинция, округ, империя, уезд, санитария, оспа, орошение, дезинфекция, врачебная экспертиза, врач, губернатор.

**Jonibek Butayev**

Associate Professor Department of Social Sciences,  
Doctor of Philosophy (PhD ) University of Exact and Social Sciences  
E-mail:mr.butayev@mail.ru

## THE STATE OF MEDICAL SERVICES IN THE SAMARKAND REGION IN THE EARLY 20TH CENTURY

### ABSTRACT

During the colonial period, a number of reforms were carried out in the social life of the Samarkand region. This article identifies the medical reforms implemented by the Russian Empire in the Samarkand region in the early 20th century, along with relevant statistical data and the challenges associated with this field at that time. Additionally, the impact of changes and innovations introduced by the imperial administration during the historical period when the region was known as the Samarkand region is assessed. Furthermore, statistical data on medical treatment are analyzed and compared across different territories.

**Index Terms:** province, district, empire, county, sanitation, smallpox, irrigation, disinfection, medical expertise, doctor, governor.

### 1. Dolzarbligi:

Samarqand viloyati XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasining tarkibiga kiritilishi natijasida turli sohalarda, jumladan tibbiyot tizimida ham bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Rossiya ma'muriyati hududda o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ma'muriy-huquqiy va ijtimoiy sohalarda turli islohotlarni amalga oshirdi. Bular orasida tibbiy xizmatni rivojlantirish va sanitariya holatini yaxshilash masalalari ham muhim o'rin tutgan. XX asr boshlarida tibbiy xizmat hali ham to'liq shakllanmagan bo'lib, asosan harbiy tibbiyot tizimi doirasida faoliyat yuritgan. Shifoxonalar va tibbiy muassasalarning asosiy qismi shaharlarda joylashgan bo'lib, qishloq aholisi esa tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lgan. Shuningdek, shifokorlar va tibbiy xodimlar yetishmovchiligi ham mavjud edi.

### 2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari asosida Samarqand viloyatidagi tibbiy xizmatning XX asr boshlaridagi holatini o'rganish, uning ijtimoiy hayotga ta'sirini baholash va mavjud muammolarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur davrda amalga oshirilgan tibbiy islohotlar nafaqat tibbiyot sohasining rivojlanishiga, balki mahalliy aholining umumiy salomatligiga va ijtimoiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun ushbu maqola orqali hududdagi tibbiy xizmat tizimi qanday shakllangani, uning muammo va kamchiliklari hamda uning jamiyat rivojiga qanday ta'sir etgani tahlil qilinadi.

Tadqiq etilayotgan mavzu qator manbalarda o'z aksini topgan bo'lib, ularni quyidagi turkumlarga bo'lish mumkin: 1. Arxiv hujjatlari. 2. Rasmiy amaldorlar va taftish komissiyalari hisobotlari. 3. Statistika qo'mitalari materiallari, yilnomalar va turli ma'lumotnoma-kitoblarda nashr etilgan maqolalar hamda ma'lumotlar. 4. Mahalliy va xorijiy tillardagi manbalar. 5. Davriy matbuot materiallari.

O'zMAning I-1, I-5, I-7, I-18, I-20, I-21, I-22-fond arxiv hujjatlarida XX asr boshlarida Samarqand viloyati tibbiy xizmati holati, tibbiy muassasalar va ularning faoliyati, tibbiy xodimlar tarkibi, sanitariya holati, emlash tadbirlari va dorixonalar faoliyati haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Ularning ko'pi rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, hisobot va buyruqlar, raportlar(bildirishnoma), sirkulyarlardan iborat.

### 3. Tadqiqot natijalari:

1868-yilda Samarqand shahri egallanib, Zarafshon okrugi tuzilgach Rossiya imperiyasi tomonidan ma'muriy-boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohada o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, viloyatning sog'liqni saqlash tizimi sohasida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. 1868-yilgi "Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari"ning 90-moddasiga ko'ra,

okrug harbiy-xalq boshqaruvi xizmatchilari, shuningdek, mahalliy aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun har bir bo'limga alohida shifokor tayinlanib, bo'limdagi shifokor vazifasini, tibbiyot xodimlari yetishmasligi bois, batalyon shifokorlaridan biri bajarishi mumkinligi (bunda unga shtatga muvofiq qo'shimcha maosh tayinlanadi) belgilab olingan edi [1].

1886-yilda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom" qabul qilinib, o'lkaning tibbiy bo'limini boshqarish tizimi Nizomning II bobi (A punkti) bilan Bosh harbiy-tibbiy boshqarmaning nazorati ostida qoldi [2].

Nizomga ko'ra, tibbiyot tarkibi viloyat tibbiy inspektori huquqiga ega bo'lgan viloyat shifokori tomonidan nazorat qilingan. Uning viloyat harbiy gubernatoriga bo'ysunishi alohida qayd etildi. Uyezd va shahar shifokorlarini tayinlash Bosh harbiy-tibbiy inspektor tomonidan amalga oshirilgan, ammo Turkiston general-gubernatori tomonidan tasdiqlangan. 1886-yilgi Nizom bo'yicha shifokorlar kasallarni – ham ruslarni, ham tub aholini ham uyda, ham kasalxonalarda davolashga majbur edi. Shunday qilib, butun tibbiy soha, shu jumladan, sof fuqaro tibbiyoti ham, butunlay harbiy kuch qo'lida qoldirildi. Buni 1911-yilda Bog'don uchastka qishloq shifoxonasini Bog'don qishlog'idan Yalanchi qishlog'iga ko'chirish uchun viloyat gubernatoriga o'lka general-gubernatori ruxsat berganidan ko'rish mumkin [3].

Viloyatda 1887–1910-yillarda tibbiy xodimlar tarkibi quyidagicha bo'lgan: Shifokorlar; Ayol-shifokorlar; Feldsherlar; Farmatsevtlar; Veterinarlar; Doyalar; Ayol-feldsherlar; Mahalliy emlovchilar. 1887-yildagi shifokorlar soni (5 nafar) 1910-yilga kelib deyarli 5 barobarga (23 nafar), ayol-shifokorlar 2 barobarga (2 nafardan 5 nafarga), farmatsevtlar 11 barobarga (1 nafardan 11 nafarga), doylar 3 barobarga (5 nafardan 16 nafarga) va kasallik bilan murojaat qilganlar soni esa 13 barobarga oshishi (9867 nafardan 128615 nafarga) kuzatilgan [4]. Bu raqamlardan shifokorlarga nisbatan farmatsevtlar soni o'sib borganini ko'rish mumkin.

1914-yilda Samarqand viloyatida 29 nafar erkak-shifokor, 5 nafar ayol-shifokor, 29 nafar feldsher, 6 nafar feldsherits-akusher, 15 nafar akusher va doya, 5 nafar tish shifokori va 14 nafar farmatsevt bo'lgan [11]. Tibbiy tarkibning katta qismi Samarqand shahri va uyezdida to'plangan bo'lib, viloyatdagi mavjud 5 nafar tish shifokori faqat Samarqand (4 nafari) va Kattaqo'rg'on shahar (1 nafari)larida faoliyat olib borib, viloyatning qolgan aholisi bu xizmatdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaganligini ko'rsatadi. Viloyatdagi jami 15 nafar akusher va doylar xizmati faqat Samarqand shahrida mavjud bo'lib, boshqa uyezd va shaharlardagi aholi uchun bu davrda hali ham mahalliy ayol-doyalar xizmat ko'rsatgan. Viloyatdagi jami 29 nafar shifokorning 3 nafari Shifokorlar bo'limi, 4 nafari uyezd, 7 nafari shahar, 1 nafari sanitar va 11 nafari zemstvo uchastkalari va 3 nafari temiryo'lda faoliyat ko'rsatgan [5].

O'lkada tibbiy mutaxassislar yetishmovchiligi muntazam ravishda kuzatilgan va maxsus shifoxona shifokorlari bo'lmagan. Viloyatda ruhiy kasallar uchun uylar va fuqarolik shifoxonalarida maxsus bo'limlar mavjud bo'lmagan. Ruhiyatida muammosi bo'lganlar joylardagi harbiy shifokorlar va Toshkentdagi harbiy gospitalda davolangan [6]. Zavodlarda kasal bo'lib qolgan ishchilar tibbiy yordam uchun shahar va tuman shifokorlariga yoki harbiy shifokorlarga murojaat qilishgan. Og'ir kasalliklar bo'lsa, ishchilar shahar kasalxonasida yoki harbiy tibbiy muassasada davolanish uchun jo'natilgan [7]. Tibbiy xodimlar yetishmasligi (shifokor, feldsher va doylar xizmatidan foydalanish imkoniyati bo'lmaganligi)dan qishloqlardagi mahalliy aholi hududlaridagi tabiblarga murojaat qilishgan.

Qishloqlarda mahalliy aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun 1905-yil 26-dekabrda qonunga ko'ra, Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida 44 ta uchastka shifokorlari lavozimi joriy etilgan bo'lib, xususan, Samarqand viloyatida 10 ta uchastka shifokori ish boshlagan [8]. Qonun hududdagi sud-tibbiyot ishlarini uyezd shifokorlari zimmasida qoldirgan. Uchastka shifokori viloyat shifokoriga bo'ysunib, unga qabul qilingan bemorlar, kasalliklar, davolanganlar va o'z faoliyati bo'yicha o'rnatilgan shakl bo'yicha yarim oylik, oylik va yillik hisobotlar topshirib borgan [9]. Uchastka shifoxonasi tibbiy tarkibida uchastka shifokoriga bo'ysunuvchi feldsher va feldsherits-akusherka bo'lib, unga davolash va xo'jalik ishlarida yordam bergan. Feldsherning vazifasi barcha tibbiy kitoblar va dorilarni nazorat qilish, feldshers-akusher vazifasi esa xo'jalik ishlarini yuritish bo'lgan.

1905-yilda qabul qilingan yo'riqnomaga ko'ra, qishloq aholisi uchun har bir uchastka shifoxonasida 6 ta koyka (to'shak) o'rin: 4 tasi erkaklar va 2 tasi ayollar uchun, bundan tashqari 1 ta zaxira krovat bo'lishi shart edi. Shifoxonada barcha tabaqadagi aholi qabul qilinishi belgilandi. Davolab bo'lmaydigan davriy bemorlar qabul qilinmas edi. Agarda bemorlar soni mavjud o'rinlar sonidan ortib ketganda shifokor kasallikning og'irlik va xavflilik darajasiga qarab olib qolgan yoki uyda davolanish uchun dori yozib bergan. Xavfli bo'lgan holatlarda bemor davolash uchun olib qolingan. Mazkur holatda erkaklar o'rni ayollar o'rni bilan almashtirilgan yoki aksincha [10]. Bemorning barcha yuklari, kiyimlari va pullari o'rnatilgan tartibda maxsus daftarga ro'yxatga olingan va chiqib ketguncha saqlangan. Pullari shifokor tomonidan saqlangan va barcha bemorlarning kirlari yuvib turilgan. Bemor kasallikdan vafot etgan taqdirda pullari va buyumlari qarindoshlariga berish uchun politsiyaga taqdim etilgan.

Statistik materiallarga ko'ra rus shifokorlariga murojaat qiluvchilar va ishonch bildirib tashrif buyuruvchilar soni muttasil ortib borgan. Xususan, 1887-yildan 1910-yilgacha rus shifokorlari tomonidan mahalliy aholiga ko'rsatilgan tibbiy yordam 12 barobarga oshgan: 1887-yilda – 9867 nafar, 1889-yilda – 37438 nafar, 1890-yilda – 54580 nafar, 1892 yilda – 20145, 1893-yilda – 23493 nafar. 1898-yilda 46889 nafar, 1904-yilda – 90280 nafar, 1910-yilda 128615 nafar [4]. Lekin, mazkur raqamlar umumiy aholi soniga nisbatan olinsa, tibbiy yordamga murojaat qilganlar kamchilikni tashkil etishini ko'rish mumkin.

1914-yilda viloyatda tibbiy xizmatdan foydalangan 173398 nafar bemorning 158176 nafari shifokorlar, qolgan 15222 nafari tibbiy xodimlar yordamida shifo topgan [6]. Mazkur davrda aholi soni 1 mlndan [7] ortiq bo'lganligini hisobga olsak, umumiy aholi soniga nisbatan bu ko'rsatkich juda kamchilikni tashkil etgan. Mahalliy aholi rus shifokorlariga murojaat qilganda shifoxonalardagi tarjimonlar orqali muloqot qilishgan.

Viloyatida faqat mahalliy bemor ayollar va ularning yosh bolalarini qabul qilishga mo'ljallangan ambulatoriyalar ham faoliyat ko'rsatgan. Mazkur shifoxonalar 1886 yildan viloyatning Samarqand va Xo'jand shaharlarida ishga tushirilib, ular feldsherlar yordam beradigan ayol-shifokorlar tomonidan boshqarilgan [6].

Viloyatdagi mavjud ambulatoriyalarda yotib davolanish pulli bo'lgan va ular doimo foyda bilan faoliyat yuritgan. Jumladan, 1911-yilda Xo'jand shahridagi ambulatoriyada bemorlarning kunlik yotib davolanishi 30-45 kopeykdan to'g'ri kelgan va ambulatoriya daromadi 2217 rubl 23 kopeyek, xarajati esa 2062 rubl 19 kopeyekni tashkil etgan [14].

Yuqorida keltirilgan barcha shifoxonalardagi bemorlarga haftaning turli kunlarida har xil ovqat berilishi tizimi joriy etilgan. Xususan, 1910-yilda O'ratepa shahar shifoxonasi ovqatlar (shurguruch, moshxo'rda, qovurma, mastava, sho'rva, shavla, palov) masalliqolari uchun bir kishiga kuniga 32-37 kopeyek, O'ratepa uchastka-qishloq shifoxonasida 26-30 kopeyek, Dahbed uchastka-qishloq shifoxonasida 30 kopeyek va Panjikent qishloq-vrachlik uchastkasida 30 kopeyek sarflangan [14]. O'sha davrda qishloq va shahar shifoxonalarda kunlik davolanish narxlarini o'rtasida tafovut bo'lib, shaharda qimmat, qishloqda arzon bo'lgan. Xususan, 1911-yilda O'ratepada har bir bemor uchun kunlik davolanish narxi qishloq shifoxonasida 30 kopeyek va shahar shifoxonasida 45 kopeyek bo'lgan [14].

Mazkur narxlar o'sha davrdagi mahsulotlar narxidan kelib chiqib belgilangan. Xususan, 1910-yilda Dahbed uchastkasidagi Jomboy bozorida 1 funt qo'y go'shti 18 kopeyek, 1911-yil yanvarda 35 kopeyek, aprelda 20 kopeyek bo'lib, mol go'shti ancha arzon 12 kopeyek bo'lgan [14]. Dahbedda narxlar o'rtasidagi tafovut mol haftada bir marta, qo'y esa har kuni so'yilishi bilan bog'liq bo'lgan. Mazkur xarajatlar bemorlar to'lovi va shifoxona xarajatlari hisobidan ta'minlangan va doimo daromad xarajatlardan ortiq bo'lganligini kuzatish mumkin.

Xususan, 1910-yilda Mitan qishloq shifoxonasi bemor Yuzbal Rahmonqulovning 7 kunlik statsionar davolanishi uchun 2 rubl 10 kopeyek olib, jami bemorlarning oziq-ovqat ta'minotiga 2 rubl 10 kopeyek sarflagan. Shifoxonaning o'sha yili tibbiy tarkibi va xo'jalik uchun xarajatlari 5283 rubl 75 kopeyekni [14], 1911-yil yarim yili uchun Zomin uchastka shifoxonasi 332 rubl 75 kopeyek daromad olib 218 rubl xarajat qilgan (114 rubl 75 kopeyek qo'lda qolgan), O'ratepa qishloq vrachlik uchastkasi 2854 rubl daromad olib, 2561 rubl xarajat, Urgut qishloq shifoxonasi 2366 rubl

59 kopeyek daromad va 2239 rubl 83 kopeyek xarajat, Panjikent qishloq shifoxonasi 1622 rubl 2 kopeyek daromad va 1565 rubl 33 kopeyek xarajat qilgan [14].

Rossiya imperiyasining asosiy tayanchi bo'lgan harbiylar davlat hisobidan bepul davolanishgan. Jumladan, Bosh Intendantlik boshqarmasining 1913-yilgi ro'yxatida harbiy-shifoxonalarda 2-Turkiston o'qchi polkidan 1 ta, 3-Turkiston o'qchi polkidan 1 ta, artilleriya diviziyasidan 2 ta, jami 4 nafar quyi darajadagi harbiylar bepul davolanganligi keltirib o'tilgan [15]. Shuningdek, aholi shifoxonalari Intendantlik hisobidan harbiy qism askarlariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatilgan. Masalan, O'ratepa shahar shifoxonasi qabul bo'limiga 1913 yilda murojaat qilgan 4 nafar harbiy 59 kun davolanib, ulardan 3 nafari tuzalib, 1 nafari vafot etgan. O'sha davrda kunlik to'lov bitta bemor uchun 50 kopeyek bo'lgan [15]. Bemorlar ijtimoiy tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak, aksariyati imperiya ma'muriyati vakillari va ularning oila a'zolari hamda bir necha nafari mahalliy aholi vakillaridan bo'lgan. Xususan, 1913 yilda Samarqand mahalliy lazaretida davolangan 57 nafar bemorning 5 nafari mahalliy aholi vakillari bo'lgan [15].

Uyezd shifokorlari aholini davolash ishlaridan tashqari sud-tibbiy ekspertiza xizmatlarini ham amalga oshirgan. Jumladan, 1889 yilda viloyat bo'yicha uyezd va shahar shifokorlari 106 ta jasadni yorib tibbiy ekspertiza qilgan [15]. Shuningdek, 1902 yilda Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida uyezd shifokorlarining vazifalari sud-tibbiyot va tibbiyot-politsiya bo'linmalariga rahbarlik qilish kerakligi belgilab olindi [16].

1914-yilda viloyatdagi sud-tibbiy ekspertiza aktlari soni 603 ta bo'lib, hududlar kesimida quyidagicha bo'lgan: Samarqand uyezdida 172 ta, Kattaqo'rg'on uyezdida 247 ta, Jizzax uyezdida 43 ta va Xo'jand uyezdida 141 ta [17]. Mazkur raqamlardan tibbiy aktlar soni 1914-yilga kelib 1889-yildagiga nisbatan deyarli 6 baravarga ortganligini ko'rish mumkin.

Tuman va shahar shifokorlari zimmasiga aholiga tibbiy yordam ko'rsatish, sud-tibbiy ekspertizadan tashqari hududlarda sanitariya nazorati va boshqa vazifalar ham yuklatilgan. Mintaqaning qishloq aholisi, ayniqsa ko'chmanchi aholining sanitariya masalalari muqarrar ravishda o'zlariga qoldirilgan, chunki fuqaro shifokorlari va politsiya xodimlarining soni yetarli emasligi sababli o'lkaning yuqori siyosiy ma'muriyati shaharlardan tashqaridagi sanitariya holatini kuzatishining imkoniyati deyarli yo'q edi [18].

Imperiya tomonidan shahar joylarda ichimlik suvlari orqali turli yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olish maqsadida tadbirlar o'tkazib turilgan. Jumladan, Ichki Ishlar vazirligi Bosh tibbiy boshqarma inspektori 1910-yil 4-noyabrda gubernatorlarga 1513-sonli sirkulyar yuborib, imperiyadagi sanitar holatni bilish uchun 1911-yil 1-martga qadar ro'yxatga olish kartochkasini (52 ta savoldan iborat) to'ldirib taqdim etishni so'ragan. Bunda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi va ichishga yaroqsiz suvlar bor joylarni yo'q qilish bo'yicha aniq va to'liq ma'lumot olish maqsad qilingan [19].

Imperiya tomonidan o'lka chegarasini kesib o'tuvchilar uchun tibbiy-sanitar tartib joriy etilgan. Xususan, Turkiston general-gubernatorining 1903-yil 5-iyuldagi 174-sonli buyrug'iga binoan musulmon-ziyoratchilar uchun o'rnatilgan vaqtinchalik qoidada Hajga ketayotgan ziyoratchilar portlar (Kaspiy va Qora dengiz portlari) va chegara punktlarida tibbiy-sanitar tozalikdan o'tishi va qaytayotganda pasportidagi talonga o'tganligi to'g'risida belgi qo'ydirish majburiy belgilab qo'yildi. Chet eldan kirib kelmoqchi bo'lgan musulmonlar faqatgina imperiya Ichki ishlar vazirligining ruxsati bilan port va chegara punktlaridan va tibbiy-sanitar nazoratidan o'tishi mumkin bo'lgan [32]. O'lkada yuqumli kasalliklar rivojlanishi bilan okrug va harbiy shifokorlar tegishli idoralar tomonidan ushbu hududlarga infeksiyani yo'q qilish, kasal aholiga tibbiy yordam ko'rsatish, tegishli choralarni ko'rish uchun dori, dezinfeksiyalovchi vositalar, zarur mablag' bilan ta'minlangan holda feldsherlar bilan birgalikda yuborilgan va yetarli miqdorda ta'minlab turilgan.

#### **Xulosa:**

XX asr boshlarida Samarqand viloyatida tibbiy xizmat tizimi Rossiya imperiyasi islohotlari ta'sirida shakllangan. Imperiya ma'muriyati tomonidan tibbiyot sohasida bir qator o'zgarishlar kiritilgan bo'lsa-da, tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlari cheklangan bo'lib, qishloq aholisi asosan an'anaviy tabiblarga murojaat qilishda davom etgan. Tibbiyot mutaxassislari

yetishmovchiligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va tibbiy xizmatdan foydalanishdagi ijtimoiy tengsizlik asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lgan. Shifokorlar va tibbiy xodimlar soni yillar davomida ortib borgan bo'lsa-da, umumiy aholi soniga nisbatan bu ko'rsatkich juda past darajada qolgan. Shuningdek, tibbiy muassasalarning faoliyati imperiya ma'muriyati manfaatlariga qarab tashkil etilgani kuzatilgan. Shu tariqa, Rossiya imperiyasining tibbiy islohotlari mahalliy aholiga ma'lum bir darajada ijobiy ta'sir etgan bo'lsa ham, tibbiy xizmatning keng qamrovli va samarali bo'lishida katta muammolar saqlanib qolgan.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston milliy arxivi. I-22-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 18-varaq.
2. Высочайше утвержденное Положение об управлений Туркестанским крае 12 июня 1886 года. – СПб., 1888. – С. 322.
3. O'zbekiston milliy arxivi. I-18-fond, 1-ro'yxat, 11303-ish, 62-varaq.
4. Обзор Самаркандской области за 1887 год. – Самарканд, 1888. – С. 19-20; Обзор Самаркандской области за 1890 год. – Самарканд, 1892. – С. 35; Обзор Самаркандской области за 1893 год. – Самарканд, 1894. – С. 87; Обзор Самаркандской области за 1898 год. – Самарканд, 1900. – С. 68-69; Обзор Самаркандской области за 1904 год. – Самарканд, 1905. – С. 87-88; Обзор Самаркандской области за 1910 год. – Самарканд, 1912. – С. 60-62.
5. O'zbekiston milliy arxivi. I-1-fond, 12-ro'yxat, 1877-ish, 59-varaq.
6. O'zbekiston milliy arxivi. I-1-fond, 10-ro'yxat, 2067-ish, 129-varaq.
7. O'zbekiston milliy arxivi. I-1-fond, 11-ro'yxat, 616-ish, 24-varaq.
8. К вопросу об усилении врачебной помощи в крае. Туркестанские ведомости. 1914, № 100.
9. Инструкция о порядке исполнения обязанностей участковыми врачами и прочими служащими по сельско врачебной части в коренных областях Туркестанского края и по врачебной части Семиреченской области // “Туркестанские ведомости” 1907 № 170.
10. O'zbekiston milliy arxivi. I-18-fond, 1-ro'yxat, 11349-ish, 113-varaq.
11. O'zbekiston milliy arxivi. I-18-fond, 1-ro'yxat, 11303-ish, 38-48-varaqlar.
12. O'zbekiston milliy arxivi. I-18-fond, 1-ro'yxat, 11349-ish, 105-111-varaqlar.
13. O'zbekiston milliy arxivi. I-18-fond, 1-ro'yxat, 11349-ish, 72-varaq.
14. O'zbekiston milliy arxivi. I-1-fond, 11-ro'yxat, 616-ish, 44-varaq.
15. O'zbekiston milliy arxivi. I-1-fond, 27-ro'yxat, 589-ish, 2-varaq.
16. O'zbekiston milliy arxivi. I-1-fond, 12-ro'yxat, 1877-ish, 62-varaq.
17. O'zbekiston milliy arxivi. I-1-fond, 11-ro'yxat, 616-ish, 17-varaq.
18. O'zbekiston milliy arxivi. I-18-fond, 1-ro'yxat, 11291-ish, 100-102-varaqlar.
19. Положение об управлении Туркестанского края. – Ташкент: Типо-Литография В.М. Ильина, – 1903. Приложение. – С. 199-200.

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 4

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000